Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	



“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA XALQARO HAMKORLIK: O‘ZBEKISTONNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDAGI YANGI TENDENSIYALAR

Xashimov Pazliddin Zukurovich

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
O‘zbekiston Milliy universiteti
E-mail: @gmail.com

Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi
E-mail: xadyatillo2004@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonida xalqaro hamkorlikning roli va tashqi iqtisodiy faoliyatdagi yangi tendensiyalar tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor xorijiy investisiyalar, xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqalar va texnologik transfer orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan tashabbuslarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, xalqaro hamkorlik, tashqi iqtisodiy faoliyat, barqaror rivojlanish, xorijiy investisiyalar, texnologik transfer.

Abstract: This article analyzes the role of international cooperation in Uzbekistan's transition to a green economy and the emerging trends in its foreign economic activity. Particular attention is paid to initiatives related to attracting foreign investment, cooperation with international financial institutions, and technology transfer to ensure environmental sustainability.

Key words: Green economy, international cooperation, foreign economic activity, sustainable development, foreign investment, technology transfer.

Аннотация: В статье рассматривается роль международного сотрудничества в процессе перехода Узбекистана к «зелёной» экономике, а также новые тенденции во внешнеэкономической деятельности страны. Основное внимание уделено инициативам по привлечению иностранных инвестиций, сотрудничеству с международными финансовыми институтами и трансферу технологий для обеспечения экологической устойчивости.

Ключевые слова: «зелёная» экономика, международное сотрудничество, внешнеэкономическая деятельность, устойчивое развитие, иностранные инвестиции, трансфер технологий.

KIRISH

Bugungi kunda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda iqtisodiy o‘tishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu jarayonda faol ishtirok etib, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini milliy rivojlanish strategiyasiga integrasiya qilmoqda. 2022-yil dekabr oyida O‘zbekistonning 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha strategik dasturi va harakatlar rejasi tasdiqlandi¹. Mazkur hujjatlarda iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirishdan tortib, davlat investisiyalariga “yashil” mezonlarni tatbiq etish, kadrlar tayyorlash va eng muhimi, xalqaro hamkorlikni mustahkamlashgacha bo‘lgan vazifalar belgilangan. Davlat o‘z zimmasiga 2030-yilga borib issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yil darajasidan 35% kamaytirish majburiyatini oldi². Bu esa faqat ichki islohotlar bilangina emas, balki keng ko‘lamli tashqi iqtisodiy hamkorlik orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yirik maqsaddir.

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги ПФ-158-сонли фармони «Ўзбекистон–2030» стратегияси тўғрисида.

2 Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси – Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва яшил иқтисодиёт йилида бажариладиган вазифалар тўғрисида (2022).



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda hukumat ekologik barqarorlikni ta'minlashga doir siyosatni yangi bosqichga olib chiqdi. 2025 yilning "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi ham buning yorqin dalilidir. Bu orqali O'zbekiston barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha global sa'y-harakatlarga o'z hissasini qo'shish hamda xalqaro majburiyatlarini bajarishga intilayotganini ko'rsatmoqda. Masalan, mamlakat 2022-yilda Global metan tashabbusiga qo'shilib, 2030 yilgacha metan chiqindilarini 2020 yil darajasiga nisbatan 30% kamaytirishga kelishib oldi. 2023 yilda esa Iqtisodiyot va moliya vazirligi Iqlim bo'yicha moliya vazirlari koalitsiyasiga a'zo bo'ldi. Bu kabi qadamlar O'zbekistonning xalqaro ekologik ko'makka tayangan holda iqtisodiyotini "yashillash" yo'lidagi qat'iy pozitsiyasini anglatadi.

Ushbu maqolada O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish borasidagi tashqi iqtisodiy hamkorlik yo'nalishidagi eng yangi tendensiyalar tahlil qilinadi. Maqola kirish, metodologiya, natijalar, munozara va xulosa bo'limlaridan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sifat tahlili va qiyosiy tahlil usullariga tayandik. Avvalo, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalari va davlat dasturlari o'rganilib, ulardagi xalqaro hamkorlikka doir bandlar tahlil qilindi. So'ngra, xalqaro moliya institutlari, rivojlanish dasturlari va hukumatlararo bitimlar doirasidagi so'nggi loyihalar va tashabbuslar bo'yicha ma'lumotlar rasmiy manbalar (press-relizlar, hisobotlar)dan yig'ildi. Shuningdek, Markaziy Osiyo va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining tegishli tajribalari bilan qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekistonning pozitsiyasi mintaqaviy kontekstda ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston xorijiy hamkorlar bilan birgalikda bir qator yirik yashil loyihalarni amalga oshirishni boshladi. Xususan, mamlakatda qayta tiklanadigan energetika ulushini sezilarli darajada oshirish maqsad qilingan. Quyidagi jadvalda O'zbekistonda 2025–2026 yillargacha qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida amalga oshiriladigan yirik loyihalarni ko'rishimiz mumkin.

1-jadval³

QTEM yo'nalishlari	Barpo etiladigan yangi quvvatlar:
Kamida 8 ta shamol elekt stansiyalarini qurish hisobiga 4 GVt qo'shimcha quvvatlarni barpo etish	2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy va Qorauzak tumanlari hamda Buxoro viloyati G'ijduvon va Peshku tumanlarida 3 ta (1,1 GVt)
	2024 yilda Navoiy viloyati Tomdi tumanida 1 ta (0,5 GVt)
	2025-2026 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 4 ta (2,4 GVt)
Quyosh elektro stansiyalari (FES) quvvatini 4 GVtga etkazish maqsadida kamida 10 ta FES ishga tushirish	2023-yilda Navoiy, Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida 4 ta (1,1 GVt)
	2025-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda jami 1,8 GVtli FESlarni ishga tushirish
15 ta yangi gidroelektr stansiyalarini (GES) qurish va 5 ta mavjud GESlarni modernizasiya qilish hisobiga yillik qo'shimcha 868 MVt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish	2023-yilda Toshkent viloyatida 1ta GES modernizasiyasini yakunlash hamda Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida 2 ta GES qurish (jami quvvati 29 MVt)
	2024-yilda Andijon, Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 1 ta GES modernizasiyasini yakunlash va 4 ta GES qurish (jami quvvati 122 MVt)
	2025-2026-yillarda Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida 4 ta GESlarni ishga tushirish (jami quvvati 544 MVt)

Qayta tiklanadigan energetikani kengaytirish borasida xorijiy investorlar ishtirokini ta'minlash muhim rol o'ynamoqda. So'nggi yillarda energetika sohasiga xalqaro xususiy sektorni jalb etish orqali bir qancha yirik quvvatlar ishga tushirildi. Jumladan, BAAning Masdar va Saudiya Arabistonining ACWA Power kabi kompaniyalari bilan hamkorlikda O'zbekistonda bir nechta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda. So'nggi besh yilda mamlakatga qariyb 20 mlrd AQSh dollari miqdorida xorijiy investisiyalar jalb qilindi va natijada 9,6 GVt lik "yashil" elektr quvvatlari hamda jami 300 MVt lik ikki yirik energiya saqlash tizimi ishga tushirildi⁴. Bu

3 Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi ПФ-60-сон Фармонида 2-илова

4 President.uz (2024). "Ўзбекистон Республикасида яшил иқтисодийотни ривожлантириш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш йили" эълон қилинди.



misli ko'rilmagan miqyosdagi loyihalar O'zbekistonning energetika tizimini dekarbonizatsiya qilish yo'lida ulkan qadam bo'lib, Markaziy Osiyo mintaqasida mamlakatni etakchi "yashil energetika" markaziga aylantirmoqda.

Bundan tashqari, mamlakat ekologik muammolarni hal etishda ham xalqaro ko'mak va tajribaga tayyanyapti. Misol uchun, Orol dengizining qurigan tubini ko'kalamzorlashtirish bo'yicha keng ko'lamli loyiha boshlangan – ekologik halokatdan zarar ko'rgan hududda 100 ming gektar maydonda yashil zonalar barpo etilib, 2,1 mln gektargacha cho'l hududlarda daraxtzorlar yaratish ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu model Xitoyning Gobi sahrosini ko'kalamzorlashtirish tajribasi asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbus Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda bajarilmoqda va mintaqaviy ekologik tiklanish hamda iqlim barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi. Turli fondlar, banklar va BMT agentliklari orqali imtiyozli kreditlar, grantlar va texnik yordam jalb qilinmoqda. Quyida ana shunday hamkorlikning asosiy yo'nalishlari va moliyalashtirish dasturlaridan ba'zi misollar keltirilgan:

Jahon banki O'zbekistonda past uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni moliyalashtirmoqda⁵. Masalan, energetika sektorida metan chiqindilarini kamaytirish loyihasini amalga oshirish uchun Jahon banki 10 mln AQSh dollari miqdorida grant ajratdi. Shuningdek, Jahon bankining iCRAFT tashabbusi doirasida issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish bo'yicha qo'shimcha 7,5 mln dollarlik mablag' yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Bu mablag'lar asosan qayta tiklanuvchi energetika inshootlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

BMT Taraqqiyot Dasturi O'zbekistonda qator ekologik tashabbuslarni amalga oshirishda hamkor hisoblanadi. 2025-yil boshida UNDP va Ekologiya vazirligi hamkorligida Global Ekologik Fond (GEF) mablag'lari hisobidan qiymati 6,5 mln dollarlik ikki yangi loyiha ishga tushirildi⁶. Ulardan biri 69 ta davlat qatorida O'zbekistonning milliy Biologik xilma-xillik bo'yicha strategiya va harakat rejasini yangilashga ko'maklashsa, ikkinchisi noyob tabiiy ekotizimlarni (G'arbiy Tyan-Shan, Nurota va Qo'hitang tog'lari hududlari) muhofaza qilish va reabilitatsiya qilish choralari o'z ichiga oladi. Mazkur loyihalarda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) kabi hamkorlar ham jalb etilgan.

Germaniya va Janubiy Koreya Evropa va Osiyo davlatlari ham O'zbekistonga "yashil" islohotlarda ko'mak berish uchun grant va texnik yordam ajratmoqda⁷. Masalan, Germaniyaning Xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) O'zbekistonda sanoatda karbon chiqindilarini kamaytirish va zararli gazlar emissiyasini qisqartirish maqsadida 20 mln evro investisiya kiritmoqda. Bu mablag'lar azot kislotasi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish kabi sanoatni "yashillashtirish" loyihalariga yo'naltiriladi. Janubiy Koreya hukumati qoshidagi KOICA agentligi esa Global Yashil O'sish Instituti (GGGI) orqali O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi yashil hamkorlikni rivojlantirish uchun 6,5 mln dollarlik texnik yordam dasturini moliyalashtirmoqda. Ushbu dastur doirasida Koreya mutaxassislari O'zbekistonga qayta tiklanuvchi energetika va ekologiya sohalarida tajriba va texnologiyalar transferini ta'minlashga yordam bermoqda.

Evropa Ittifoqi O'zbekistonga barqaror rivojlanish yo'lida strategik hamkor sifatida qaraydi⁸. 2021-2027-yillar uchun Evropa Ittifoqi tomonidan O'zbekistonga 119 mln evro grant ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu mablag'larning bir qismi "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. El tomonidan O'zbekistonda quyosh energetikasi va yashil vodorod ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko'mak beruvchi loyihalar boshlangan. Xususan, texnik yordam doirasida xavfli kimyoviy moddalarni boshqarish, energiya tejamliligini oshirish va "yashil" moliyalashtirish mexanizmlarini yaratishga ko'mak ko'rsatilmoqda. Bundan tashqari, Evropa investisiya banki va boshqa moliya institutlari orqali ham O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya loyihalariga sarmoya jalb etilmoqda.

Yuqoridagi misollar ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari va donorlar mablag'lari O'zbekistonning yashil loyihalarini amalga oshirishda muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bu hamkorlik nafaqat investisiya shaklida, balki texnologiya va bilim almashinuvi ko'rinishida ham olib borilayapti – natijada O'zbekiston zamonaviy texnik echimlarni tezroq joriy etish imkoniga ega bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro hamkorlik O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Xorijiy investisiyalar, texnologiya va bilim almashinuvi mamlakatga ekologik muammolarni hal etish bilan bir vaqtda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini bermoqda. O'zbekiston o'zining Aral dengizi fojiasi kabi yirik ekologik inqirozlarini engib o'tishda va kelajakda bunday vaziyatlarning oldini olishda ham xalqaro hamjamiyat ko'magidan keng foydalanmoqda. Masalan, yuqorida ta'kidlanganidek, Orolbo'yini ko'kalamzorlashtirish yoki ko'p tarmoqli erta ogohlantirish tizimini yaratish kabi

5 Jahon banki (World Bank) hisoboti (2021-2024 yillar) – O'zbekistonda yashil o'sish va iqlim o'zgarishi bo'yicha siyosiy chora-tadbirlar to'plami

6 BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) O'zbekiston – Uzbekistan Marks the Start of the Year of Environmental Protection and Green Economy with Launch of New Green Initiatives (press-reliz, 18-yanvar 2025)


7 Bourse & Bazaar Foundation – Uzbekistan's President Hopes a Decree Will Spur Green Economic Growth (2025)

8 Stiftung Wissenschaft und Politik – The Gulf States, China, and Central Asia's Green Energy Sector (2023)



loyihalar global fondlar yordamisiz amalga oshishi qiyin edi. Shu ma'noda, xalqaro sheriklik O'zbekistonga iqlim o'zgarishiga moslashish, suv tanqisligi, cho'llanish va h.k. xavflarga qarshi kurashishda mustahkam tayanch bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida olib qaralganda, O'zbekistonning "yashil" tashqi iqtisodiy faoliyati ko'lami va tezligi jihatidan alohida ajralib turadi. Mintaqaning boshqa davlatlari ham bu yo'nalishda qator qadamlarni qo'yayotgani kuzatilmoqda. Quyidagi grafikda Markaziy Osiyo davlatlarida 2000–2020 yillar davomidagi energiya intensivligi (TES/YAIM) dinamikasi tasvirlangan. Bu ko'rsatkich har 1000 AQSh dollari yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan energiya miqdorini (GJ) ifodalaydi.



1- rasm. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan energiya miqdori⁹.

Grafikdan ko'rsatadiki, so'nggi 20 yil ichida, ayniqsa O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston kabi davlatlarda energiya intensivligi keskin pasaygan. Bu jarayon, asosan, uglevodorod (neft, gaz) manbalariga asoslangan energiya ishlab chiqarish ulushining kamayishi hamda qayta tiklanadigan energiya manbalarining keng joriy etilishi bilan bog'liq. Bu tendensiya – yashil iqtisodiyotga o'tish, energetik xavfsizlikni oshirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish kabi strategik maqsadlarga xizmat qiladi. Jumladan, Qozog'iston Respublikasi 2060-yilgacha uglerod neytralligiga erishishni maqsad qilgan va shu yo'lda 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini 1990-yil darajasidan 15% kamaytirishga va'da bergan (Parij kelishuvi doirasida)¹⁰. Bu borada Qozog'iston Markaziy Osiyoda yagona milliy karbon savdo tizimini (ETS) yo'lga qo'yib, yirik energetika va sanoat korxonalariga kvotalar o'rnatgan – bugungi kunda Qozog'iston ETSi mamlakatning jami 43% issiqxona gazlari emissiyasini qamrab oladi. Qozog'iston ham xorijiy sarmoya va texnologiyalarni jalb etish borasida O'zbekistonga o'xshash yo'l tutmoqda: masalan, u ham Masdar va ACWA Power kabi kompaniyalarni jalb etgan holda yirik quyosh va shamol loyihalarini amalga oshiryapti. Hozirgi vaqtda Qozog'iston energetikasida qayta tiklanuvchi manbalar ulushi 6% atrofida bo'lsa-da, hukumat bu ko'rsatkichni 2030-yilda 15% ga, 2050-yilda esa 50% ga etkazishni reja qilgan. Shu bilan birga, Qozog'iston va O'zbekiston o'zaro va boshqa qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda mintaqaviy energetika loyihalarini ilgari surmoqda – bunga yuqorida aytib o'tilgan Evropaga "yashil" elektr eksport qilish bo'yicha Kaspiy bo'yi hamkorligi misol bo'la oladi. Bunday tashabbuslar ikki davlatning manfaatlari bir-birini to'ldirishi mumkinligini va xalqaro bozorlar (masalan, Evropa) talabini qondirishda birga ishlashga tayyorligini ko'rsatmoqda.

Mintaqaning boshqa davlatlarida – Qirg'iziston va Tojikistonda – yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi xalqaro hamkorlik asosan an'anaviy kuchli tomon bo'lgan gidroenergetikani rivojlantirish va undan keladigan foydani oshirishga qaratilgan. Masalan, ushbu ikki davlat Jahon banki, Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlar ko'magida CASA-1000 loyihasini amalga oshirmoqda. CASA-1000 Markaziy Osiyoning ortiqcha gidroelektr energiyasini Janubiy Osiyo mamlakatlariga (Afg'oniston va Pokistonga) eksport qilishni nazarda tutadi. 2024-yil holatiga ko'ra, Qirg'iziston va Tojikiston o'z hududidagi yuqori voltli uzatish liniyalarini qurib bo'ldi va loyiha 2025-2027 yillarda qisman ishga tushishi kutilmoqda. Bu loyiha ham aslida Markaziy Osiyoning global energetik zanjiriga integratsiyalashuvi namunasi bo'lib, xorijiy investisiyalar va texnik ko'mak evaziga amalga oshmoqda. Shunday

9 Jahon banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi

10 Astana Times – Kazakhstan's Ecology Minister Shares Expectations Ahead of COP29 in Baku (2024)



qilib, butun mintaqada xalqaro hamkorlik “yashil” rivojlanish uchun katalizator vazifasini o‘tamoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi misolida ham O‘zbekiston uchun qiyosiy o‘xshashliklar va darslar mavjud. Ayni paytda ko‘plab Osiyo davlatlari rivojlanishning “yashil” modeliga o‘tish uchun boy davlatlar bilan moliyaviy-texnik hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘ygan. Masalan, Vetnam 2022-yilda Katta Ettilik (G7) davlatlari bilan Adolatli energetik o‘tish sherikchiligi (JETP) kelishuvini imzoladi – ushbu bitim doirasida Vetnamga ko‘mir energiyasidan voz kechib, qayta tiklanuvchi energetikaga o‘tishni jadallashtirish uchun 15,5 mlrd AQSh dollari miqdorida moliyaviy paket ajratilishi belgilangan¹¹. Bu mablag‘larning yarmi davlatlararo imtiyozli kredit va grantlar, yarmi esa xususiy investisiyalar ko‘rinishida, taxminan 3-5 yil ichida safarbar etiladi. Kelishuv Vetnamga yillik issiqxona gazlari emisison cho‘qqisini 5 yilga oldinroqqa – 2030-yilga – surishga, ko‘mirla mo‘ljallangan energetika quvvatlari rejasini 37 GVtdan 30 GVtga qisqartirishga va 2030-yilda elektr energiyasining 47% ni qayta tiklanuvchi manbalardan olishga yordam beradi. Xuddi shunday, Indoneziya ham 2022-yilda G7 va hamkor davlatlar bilan qiymati 20 mlrd dollarlik JETP bitimini e‘lon qilgan (shundan 10 mlrd dollari davlat sektoridan, qolgan qismi xususiy sarmoya hisobidan ta‘minlanadi). Osiyo-Tinch okeanidagi bunday yirik tashabbuslar iqtisodiyoti o‘ziga borayotgan mamlakatlar uchun iqlim mablag‘larini jalb qilish yangi imkoniyatlar yaratayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur kabi rivojlangan davlatlar o‘zlari ham “yashil” texnologiyalar eksporti va xorijiy loyihalarga investisiya kiritish orqali mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirmoqda. Yuqorida eslatib o‘tilgan KOICA va GGGI misoli bunga dalil bo‘la oladi – Janubiy Koreya O‘zbekistonga texnik yordam ajratib, kadrlar tayyorlash va loyiha rejalashtirishda ko‘maklashmoqda. Yana bir misol, Yaponiyaning JICA agentligi orqali Markaziy Osiyoda suv resurslarini samarali boshqarish va energiya tejamkorligini oshirish loyihalarini moliyalab kelayotgani aytish mumkin.

Albatta, O‘zbekiston uchun bu jarayonlar butkul engil kechayotgani yo‘q – muammolar va xatarlar ham mavjud. Masalan, mamlakat iqtisodiyotida hanuz an‘anaviy yoqilg‘i sektori (gaz va neft sanoati) salmoqli ulushga ega, va bu sohalaridagi ba‘zi manfaatdor guruhlar “yashil” o‘zgarishlarga ma‘lum darajada qarshilik ko‘rsatishi mumkinligi ta‘kidlanadi. Haqiqatan, O‘zbekiston tabiiy gaz ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda 11-o‘rinda turadi, bu esa energetika tizimini dekarbonizatsiya qilishni murakkablashtiradi. Bundan tashqari, moliya masalasi doimo dolzarb: yashil loyihalar uchun zarur bo‘lgan milliardlab dollar mablag‘ni izlab topish va investorlar uchun doimiy jozibador muhitni saqlash oson emas. Yashil texnologiyalar dastlabki bosqichda qimmatga tushishi va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish uchun vaqt va resurs kerakligi ham qiyinchilik tug‘diradi. Ammo bu muammolarni engishda ham xalqaro tajriba va hamkorlik asqatmoqda – masalan, Evropada qayta tiklanuvchi energiya manbalarining tarmoq barqarorligiga ta‘sir yoki shamol energetikasining ekologik oqibatlar borasida allaqachon tajribalar to‘plangan bo‘lib, O‘zbekiston ushbu darslarni inobatga olgan holda xatolardan qochishga intilmoqda.

Yuqoridagilar tahlili asosida aytish mumkinki, xalqaro sheriklik va investisiyalar O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga tranzitsiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatga iqlim o‘zgarishi xavflariga moslashish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va iqtisodiy o‘sishni bir vaqtda ta‘minlash imkonini bermoqda. Bunda O‘zbekiston Markaziy Osiyoda etakchi o‘rinni egallab, qo‘shni davlatlar bilan birgalikda mintaqaning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatida yashil iqtisodiyotga oid hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Xalqaro moliya institutlari, donorlar va xorijiy kompaniyalar ishtirokidagi keng ko‘lamli loyihalar hisobiga O‘zbekiston katta hajmdagi investisiyalarni jalb qilmoqda, ilg‘or texnologiyalar importi va transferini ta‘minlamoqda hamda xalqaro majburiyatlarini bajarish yo‘lida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Xalqaro sheriklik va sarmoyalar O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishida hal qiluvchi rol o‘ynayotgani ayniqsa ta‘kidlanishi lozim – jahon hamjamiyati ko‘magisiz mamlakatga iqlim o‘zgarishi kabi global muammolarga moslashish va ularni engib o‘tish juda murakkab bo‘lardi.

Bugungi kunga kelib, qayta tiklanadigan energetika sohasida ilk natijalar qo‘lga kiritildi: bir necha yilda bir necha gigavatt quvvatlar tarmoqqa ulandi, minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi va atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdori asta-sekin kamaymoqda. Masalan, so‘nggi yillarda ishga tushirilgan quyosh va shamol elektr stansiyalari energiya balansini diversifikatsiya qilishga xizmat qilib, yuz minglab tonna karbonat angidrid ekvivalentidagi chiqindilarni oldini olishga yordam beradi. Qishloq xo‘jaligida suvni tejavchi texnologiyalar tufayli minglab kubometr suv resurslari tejarmoqda, shaharlarda esa elektromobillar ulushi oshib borishi bilan havoning ifloslanishi sekin-asta pasayishi kutilmoqda – bu kabi ijobiy o‘zgarishlar aholining turmush sifati va sog‘lig‘iga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Albatta, O‘zbekiston oldida hali katta vazifalar turibdi. 2030-yilgacha belgilangan maqsadlarga erishish uchun mamlakat yiliga milliardlab dollar investisiyani jalb qilishda davom etishi, huquqiy va institusional bazani

11 Reuters – G7 nations to provide Vietnam with \$15.5 bln to cut coal use (14-dekabr 2022)



takomillashtirishi va eng muhimi, boshlangan islohotlarni izchil davom ettirishi lozim. Xalqaro maydonda yangi paydo bo'layotgan moliyaviy mexanizmlardan (masalan, yashil obligasiyalar, qarz evaziga tabiatni muhofaza qilish bitimlari va hokazo) foydalanish imkoniyatlarini o'rganish ham maqsadga muvofiq. Markaziy Osiyo mintaqasida qo'shni davlatlar bilan birgalikda mintaqaviy ekologik loyihalarni amalga oshirish (masalan, transchegaraviy daryolar havzalarida integrasiyalashgan suv resurslari boshqaruvi va cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha qo'shma dasturlar) ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, O'zbekistonning yashil iqtisodiyot yo'lidagi xalqaro hamkorlik strategiyasi allaqachon ijobiy natijalarini bera boshladi – xalqaro sheriklar ko'magida bir necha gigavatt ekologik toza quvvatlar ishga tushirildi, yangi moliyaviy manbalar va texnologiyalar jalb qilinmoqda hamda milliy dasturlar global kun tartibiga uyg'unlashmoqda. Kelgusida shu yo'nalishda izchil davom etilsa, mamlakat nafaqat o'zining iqlim majburiyatlarini bajaradi, balki uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o'sish va aholining hayot sifatini oshirish kabi maqsadlarga ham erishadi. O'zbekiston tajribasi ko'rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlikni samarali yo'lga qo'yish rivojlanayotgan davlatlar uchun eng to'g'ri yo'llardan biri bo'lib, bu bilan bir vaqtda ekologik muammolar echimi va iqtisodiy taraqqiyot o'zaro uyg'un holda ta'minlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли фармони «Ўзбекистон–2030» стратегияси тўғрисида.
2. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси – Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва яшил иқтисодиёт йилида бажариладиган вазифалар тўғрисида (2022).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4477-сонли қарори «Яшил иқтисодиётга ўтиш стратегияси тўғрисида».
4. President.uz (2024). «Ўзбекистон Республикасида яшил иқтисодиётни ривожлантириш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш йили» эълон қилинди.
5. President.uz (2023). Президент Ш.М. Мирзиёевнинг «Яшил ўсиш ва глобал мақсадлар» халқаро саммитидаги нутқи.
6. Jahon banki (2023). *Uzbekistan: Choosing an Innovative and Green Future*. World Bank Group.
7. Bourse & Bazaar Foundation – *Uzbekistan's President Hopes a Decree Will Spur Green Economic Growth* (2025)
8. Stiftung Wissenschaft und Politik – *The Gulf States, China, and Central Asia's Green Energy Sector* (2023)
9. Astana Times – *Kazakhstan's Ecology Minister Shares Expectations Ahead of COP29 in Baku* (2024)
10. Reuters – *G7 nations to provide Vietnam with \$15.5 bln to cut coal use* (14-dekabr 2022)
11. UNDP Uzbekistan (2024). *Green Recovery Initiatives and Partnerships in Uzbekistan*. UNDP Press Release. <https://www.undp.org/uzbekistan>
12. GCF – Green Climate Fund (2023). *Enhancing Multi-Hazard Early Warning System in Uzbekistan*.
13. GIZ Uzbekistan (2024). *Sustainable Industry Modernization Initiatives in Central Asia*.
14. OECD (2021). *Green Finance and Investment: Mobilising Finance for Climate Action in Uzbekistan*. OECD Publishing.
15. Abdurakhmanova, G., & Abdullaev, R. (2022). *Green Economy Transition in Uzbekistan*. Scholars' Press. ISBN: 978-3-639-86328-4



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
